**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**
**Buxoro davlat universiteti**
**O.X. Xamidov**
«11» 04 2025 yil

**YURIDIK TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN BITIRUVCHILARNI OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA O‘QISHGA KIRISH IMTIHONINI O‘TKAZISH VA BAHOLASH MEZONI DASTURI**

**60420100-Yurisprudensiya yo’nalishi uchun**

**Buxoro – 2025**

**Tuzuvchilar:** G.A.Yangiyev – "Yurisprudensiya" kafedrasi mudiri, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)., dotsent.

I.I.Roziqov – "Advokat Roziqov" advokatlik byurosi rahbari, "Yurisprudensiya" kafedrasi o'qituvchisi.

M.S.Tog'oyeva – "Yurisprudensiya" kafedrasi o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:** Sh.A.Radjabov – "Yurisprudensiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, yuridik fanlari nomzodi.

Z.SH.Hakimov – "Zarif Sharifboyevich" advokatlik byurosi rahbari, "Yurisprudensiya" kafedrasi o'qituvchisi.



## ANNOTATSIYA

Yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizomi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni 3-bandiga muvofiq 2022/2023 o'quv yili qabulidan boshlab texnikumlarda o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-bosqichdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'lishi belgilandi.

## ASOSIY QISM

**Davlat va huquq nazariyasi.**

Davlat va huquq nazariyasi predmeti va metodlari. Davlat va huquq nazariyasi fani tizimi, vazifasi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy ijtimoiy fan sifatidagi roli. Davlat va huquning kelib chiqishining tarixiy rivojlanish bosqichlari. Davlat va huquqning kelib chiqishida muhim bo'lgan omillar tahlili. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar mazmun-mohiyati. Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari. Davlat funksiyalarini tasniflashga asos bo'luvchi mezonlar tahlili. Davlat boshqaruv shakliga ko'ra turlari. Demokratik siyosiy rejim turlari va o'ziga xos jihatlari. Davlat tuzilish shakllari xususiyatlarin. O'zbekiston Respublikasi davlat shaklining o'ziga xos xususiyatlari tahlili. Ijtimoiy normalar va huquq normalari. Huquqiy madaniyat va huquqiy ong. Huquq normasi tushunchasi, belgilari va xususiyatlari. Normativ-huquqiy hujjat turlari va o'ziga xos jihatlari. Huquqning manbalari. Huquq ijodkorligi. Qonun chiqarish jarayoni bosqichlari sharhi. Huquq tizimi tushunchasi va tarkibiy elementlari. Huquqiy munosabatlarning mazmunini va uning elementlari. Huquqiy layoqat va muomala layoqati mazmun-mohiyati. Huquqni sharhlash usullari va uning turlari. Huquqbuzarlikning yuridik

tarkibi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro nisbati va aloqadorligi. Huquqiy xulq-atvor. Huquqiy va yuridik javobgarlik. Huquqiy tartibga solish mexanizmi. Qonuniylik va huquqiy tartibot. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat. Davlat va huquq nazariyasi dolzarb muommolari tahlili. Milliy qonunchilikning ustuvor vazifalari tahlili. Davlat va huquqning rivojlanish istiqbollari.

**Konstitutsiya va uning nazariy hamda amaliy xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi tizimi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyani qabul qilish tarixi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasi mazmun-mohiyati. Davlat suvereniteti tushunchasi. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari mazmun-mohiyati. Xalq hokimiyatchiligi. Konstitutsiya va qonun ustunligi prinsipi tahlili. Tashqi siyosatining asosiy prinsiplari tahlili. Fuqarolik tushunchasi va uning konstitutsiyaviy asoslari. Miranda qoidasi va uning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Aybsizlik prezumpsiyasining konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari. Fuqarolarning siyosiy huquqlari tahlili. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarning konstitutsiyaviy asoslari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Oila, bolalar va yoshlar masalalari. Ta'lim oid munosabatlarning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Fuqarolik jamiayti institutlari. Sog'liqni saqlashga oid munosabatlarning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Mulkiy munosabatlarning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari mazmun-mohiyati. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi. Ommaviy axborot vositalari. Saylov tizimi prinsiplari. Oliy Majlis palatalari vakolatlari. Qonunchilik tashabbusi subektlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi. Advokatura faoliyati va uning konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi va uning palatalari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Prokuratura organlari faoliyatiga doir konstitutsiyaviy normalar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kirirtish tartibi.



**Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya**

Yurist faoliyatida tashabbuskorlik, kreativlik kabi xususiyatlarning ahamiyati. Huquqshunos nutqini tayyorlash va uni so'zlashga qo'yiladigan talablar. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi va uning mazmun-mohiyati. Ijtimoiy adolat tushunchasi. Prokuror nutqiga qo'yiladigan talablar. Huquqshunosning kasb ahloqi qoidalari. Huquqshunoslik kasbining o'ziga xos-xususiyatlari tahlili. Huquqshunos faoliyatida axborot texnologiyalarning roli. Huquqshunosning jamiyatdagi o'rni. Huquqiy ko'nikmalarning yurist faoliyatidagi ahamiyati. Yuridik fan tushunchasi, fanga oid ilmlar strukturasi. Yuridik fan obyekti va predmeti. Yuridik fan ilmlari shakllari va darajalari. Yuridik fan metodologiyasi. Mantiqiy fikrlashning omillari, talab va mezonlari. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari. Yurist faoliyatida mantiqiy fikrlashning roli. Fikrni mantiqiy ifoda etish usullari va talablari. Yuridik faoliyatda deduktiv, induktiv va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning ahamiyati. Yuridik argumentatsiya. Yuridik asoslashning yurist faoliyatidagi roli. Huquqni izohlash va anglashda konseptual yondashuvlar. Huquq klassifikatsiyasining metodologik ahamiyati. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati. Huquq normalarining metodologik muammolari. Maqsadni to'g'ri shakllantirishning zaruriy talablari. Yurist kar'erasini rejalashtirishda «SMART» texnologiyasining qo'llanilishi. Yurist faoliyatida tashabbuskorlik, kreativlik va masalaga ijodiy yondashuv. Omma oldidagi nutq va uning ta'sirchanligini ta'minlovchi omillar. Notiqlik uslublari va yuridik nutq turlari. To'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. To'g'ri qaror qabul qilishni shakllantirish metodlari. Huquqiy ongning strukturaviy-funksional tarkiblari. Huquqiy etika tushunchasi. Manfaatlar to'qnashuvi va yuridik faoliyatda unga yo'l qo'yib bo'lmasligi. Yuridik kasb egalarining professional javobgarligi. Kasb axloqi tushunchasi. Advokatlar rioya etadigan axloqiy qoidalar. Tergov va prokuratura organlari xodimlari faoliyatining axloqiy talablari. Sudyalik kasbida xolislik, adolatparvarlik, halollik prinsiplari.

**Jinoyat huquqi.**

Jinoyat qonunchiligining rivojlanish tarixi. Jinoyat qonuchiligiga oid munosabatlarning konstitutsiyaviy normalar asosida tahlili. Jinoyat kodeksi vazifalari. Jinoyat kodeksi prinsiplari. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi tahlili. Jinoyat tushunchasini hamda uning belgilari. Jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra tasniflanishi. Jinoyat tarkibi elementlari. Ayb shakllari. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi va turlari. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tahlili. Jinoiy jazo tushunchasi va maqsadi. Jazo tizimi. Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlahtiruvchi holatlar tahlili. Shaxsning sudlanganlik holati umumiy xususiyatlari. O'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga qo'llaniladigan jazolar. Qasddan odam o'ldirish jinoyatining tarkibi. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar tizimi. O'g'rilik jinoyatining tarkibi. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar tizimi. Firibgarlik jinoyatining tarkibi. Hayotga qarshi jinoyatlar turlari. Sog'likka qarshi jinoyatlar turlari. Terrorizm jinoyati tarkibi. Bezorilik jinoyati tarkibi. Jinoyat qonunchiligi yuzasidan amalga oshirilgan islohotlar tahlili.

**Fuqarolik huquqi**

Fuqarolik huquqlari va burchlarining kelib chiqish asoslari. Fuqarolik huquqining subyektlari. Huquq layoqati va muomala layoqati. Ishonchnoma turlar va muddatlari. Fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlar tahlili. Vasiylik va homiylik. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish tartibi. Yuridik shaxs tushunchasi. Bitim tushunchasi va turlari. Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish tartibi. Ishonchnoma va uning shakliga qo`yilgan talablar. Vakillik tushunchasi. Da'vo muddatlari. Mulk huquqi tushunchasi va shakllari. Mulk huquqining subyektlari va obyektlari. Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari. Neustoyka tushunchasi va shakllari. Garov tushunchasi va shakllari. Shartnoma tushunchasi va uning namunaviy shartlari. Emansipatsiya. Mualliflik huquqi va obyektlari. Vorislik huquqi. Intelektual mulk huquqi. Fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari tahlili. Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish tartibi va turlari. Yuridik shaxslarning turlari.



Yuridik shaxsning javobgarligi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat. Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar.

**Mehnat huquqi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnat huquqiga oid normalar tahlili. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning subyektlari. Jamoa shartnomasining tushunchasi va shakli. Mehnat shartnomasining tushunchasi va taraflari. Mehnat shartnomasi. Xodimni ishga qabul qilishda qo'yiladigan talablar. Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslari. Ish vaqtining tushunchasi va turlari. Ish vaqtidan tashqari ishlash tartibi. Dam olish vaqti tushunchasi va turlari. Ishlanmaydigan bayram kunlari. Har yilgi mehnat ta'tili tushunchasi va turlari. Mehnatga haq to'lash tizimi va uni belgilash tartibi. Mehnat intizomi tushunchasi va uni ta'minlash usullari. Intizomiy jazo choralari va qo'llash tartibi. O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mehnatini qo'llash taqiqlanadigan ishlar ro'yxati. Yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organlar. Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi. Mehnat to'g'risidagi qonunchilikning amal qilish doirasi. Mehnat jamoasi.

**Ma'muriy huquq**

Ma'muriy-huquqiy normalar tushunchasi va umumiy xususiyatlari tahlili. Ma'muriy organlar. Davlat boshqaruvining ma'muriy-huquq shakllari va ularning o'zaro bog'liqgi. Davlat xizmati. Davlat xizmatchisi maqomi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi va ma'muriy javobgarlikka tortilish yoshi. Ma'muriy jazoning maqsadi va turlari. Ma'muriy qamoqqa olish jazosining qo'llanilishi tartibi. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rni. Ma'muriy protsess. Ma'muriy yustitsiya. Ma'muriy ish yurituvi. Iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'muriy-siyosiy sohalarni ma'muriy-huquqiy tartibga solish masalasi tahlili.

**Oila huquqi**

Oila huquqi fani predmeti, vazifalari va tarixiy rivojlanish bosqichlari. Nikoh tuzish tartibi va shartlari. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar. Er va xotinning umumiy mulki va unga bo'lgan huquqi. Nikoh shartnomasi tushunchasi va mazmuni. Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlari. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish tartibi. Vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi tahlili. Fuqarolik holati dalolatnomalari va ularni qayd etuvchi organlar. Oilaviy munosabatlarga doir nizolar va huquqbuzarliklarni hal etish masalalari. Oilaviy-maishiy zo'ravonlik.

**Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar**

Sud tizimi. Sudning asosiy vazifalari tahlili. Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash masalasi tahlili. Sudyaning vakolat muddati va uni hisoblash tartibi. Sud ishlari yuritiladigan til. Aybsizlik prezumpsiyasi. Sudyalik lavozimiga nomzodga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining tarkibi va uni shakllantirish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi faoliyatining asosiy prinsiplari. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari. Jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilish tartibi. Harbiy sudlar sudloviga taalluqli ishlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari. Prokuratura organlarining tizimi. Ichki ishlar organlari tizimi va asosiy vazifalari. Davlat xavfsizlik xizmati faoliytining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huquqiy maqomi va asosiy vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimi va asosiy vazifalari. Bojxona organlari tizimi va asosiy vazifalari.O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari. Sudlar, prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati va sudyalar oliy kengashi to'g'risidagi qonunlarning asosiy jihatlari tahlili.



**ESLATMA:** ***Sud-huquq sohasida amalga oshirilgan so'ngi islohotlar, qabul qilingan qonunlar, Prezident Farmonlari mazmun-mohiyati va qonunchilikdagi o'zgarishlar imtihon savollarini tuzishda e'tiborga olinadi. Shuningdek, abituriyentlarning mantiqiy fikrlashi, sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunishi va hayotiy misollar yordamida tahlil etishi ijobiy baholanadi.***

**Tavsiya etiladigan ayrim adabiyotlar va normativ huquqiy hujjatlar.**


1. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: TDYUU, 2018. – 220 bet.
2. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat, 2018. – 528 bet.
3. Mualliflar jamoasi. Huquqiy ko'nikmalar va metodologiaya. Darslik. – T.: TDYUU, 2018.
4. I.B.Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. 1-qism – T.: TDYUU, 2009. – 611 bet.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: https://lex.uz/mact/-111453
6. M.Usmonaliyev, P.Bakunov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. - T.: Yangi asr avlodi, 2010. - 662 b.
7. M.X.Rustamboyev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. -Toshkent: "Adolat", 2016. - 608 b.
8. B.Musayev, D.Artikov, B.Qosimov. Ma'muriy huquq va protsess. Darslik.- T.:TDYuU nashriyoti, 2020.-160 bet.
9. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264-bet.
10. Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik) / Mualliflar jamoasi. O. Oqyulov, N. Imomov, M. Baratov va boshqalar. – T.: TDYU, 2020. – 198 bet.
11. Davlat va huquq nazariyasi (yuridik texnikumlar uchun darslik) / Mas'ul muharrir y.f.d., professor H.Boboyev. Darslik. –Toshkent: TDYU, 2020. – 213 b.
12. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: https://lex.uz/docs/-104720

13. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: https://lex.uz/ru/docs/-6257288

14. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4149765

16. O'zbekiston Respublikasining Sudlar to'g'risidagi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son

17. O'zbekiston Respublikasining Prokuratura to'g'risidagi qonuni. 29.07.2001-y., Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

18. O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonuni. 2016 yil 16 sentyabr. O'RQ-407-son. Toshkent. https://lex.uz/acts/-3027843



## YURIDIK TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN BITIRUVCHILARNI OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QISHGA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va har bir variantda 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

| Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar | Baholash ballari |
|---|---|
| **a)** berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa. | 22-25 |
| **b)** berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy ) yondashsa, xulosalar chiqara olsa. | 19-21 |
| **d)** berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa. | 14-18 |
| **e)** berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob bermasa. | 0-13 |

### Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida abituriyent faqatgina o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.